



ALEKSANDR FAYNBERGNING "UCHRASHUV" SHE'RI TAHLILI

Ochilova Xurshida Norsaidovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
fakulteti 2-bosqich talabasi
Xurshidaochilova317@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo'lgan, she'riy to'plamlari Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburgda nashr qilingan, yigirmadan ortiq multfilmlar va nasriy asarlar muallifi bo'lgan Aleksandr Faynbergning "Uchrashuv" she'rini tahlil qilamiz. Shoirning barcha asarlari, she'rlarida bo'lgani kabi mazkur she'rida ham chuqur ma'no va yorqin hislar, ifoda mavjud. Bu lirik asar shoir ijodida alohida ajralib turadigan she'rlardan biri ekanligining sabablaridan biri shuki, u inson hayotidagi kutilmagan va taqdiri uchrashuvlarning ruhiy ta'sirini yoritadi.

Kalit so'zlar: madaniy aloqalar, falsafiylik, rusiyabon kitobxonlar, Kinematografiya uyushmasi.

Kirish. Aleksandr Faynberg 1939-yilda Toshkentda tug'ilgan. U ko'plab asarlari orqali rusiyabon kitobxonlarga ko'plab o'zbek shoirlarining ijodini ochib berdi. Darvoqe, Aleksandr Faynberg o'ndan ortiq she'riy to'plamlar, yettita badiiy filmlar ssenariysi, yigirmadan ziyod multfilmlar va nasriy asarlar muallifidir. O'zbekiston xalq shoiri, Kinematografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya Prezidenti Farmoni bilan Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun 2009-yilda Pushkin medali bilan taqdirlangan. So'zni chuqur his etuvchi va bu hisga o'quvchini ham hamroh qiluvchi iste'dodli shoir va yozuvchi Aleksandr Faynberg 2009-yil Toshkentda vafot etdi. Shoirning ijodi sermahsul va keng ko'lamli. Uning she'rlarida rang – baranglik, falsafiylik, teranlik, tuyg'ular tiniqligi yarqirab turadi.

"Uchrashuv" she'rining tahlili. Shoirning barcha she'rlarida o'ziga xos uslub va nazokat bor, shuningdek, "Uchrashuv" she'ri bularning orasida alohida ajralib turuvchi ijod mahsulidir. Aleksandr Faynbergning shoir sifatidagi qobiliyatlaridan biri shundaki, u she'rning ilk satrlaridanoq kitobxonga she'rning to'liq mazmunini tushuntira oladi va kayfiyatini yuqtira oladi:

Uchrashuvga va'dalashaylik,

Uchrashmoqlik emas-ku gunoh.

Keyingi satrlardan esa she'rning maqsadi oydinlasha boradi:

Qaygadir bosh olib ketaylik,

Odamlarning ko'zidan uzoq.



Shoir atrofni tasvirlashi uchun unga mo'yqalam yoki boshqa rassomlik anjomlari shart emas — u suratni so'z orqali chizadi:

Gitara va skripka jo'r,
Sekingina taralar navo.
Ne tilasang, ofitsiant momo
Bir lahzada aylar muhayyo.

Darhaqiqat, shoir g'amga to'lib turganini ham o'quvchiga to'g'ridan to'g'ri aytmaydi, uni ham she'riy usul orqali badiiy tarzda ifodalaydiki, o'quvchida uning qalbi dardga to'lib turganligi haqida tasavvur uyg'onadi:

Sharob g'amni yuvar ko'ngildan,
Qanotlarin yig'ib ohista,
Muhabbat va ishonch ikkovlon
Yonimizga o'ltirar asta.

Demak, u uchrashishni xohlagan insoni bilan birga o'tirganini ham badiiy tarzda ifodalagan. Biroq ular shodon kayfiyatda emas, baribir nimadir yetishmaydi:

Ishonch birla, muhabbat birla
Suhbatlasha olmaymiz ro'yrost.

Bu misra o'quvchini, albatta, o'yga toldiradi. Bir tomondan qiziqish uyg'otadi: "Nega ular muhabbat bilan, ishonch bilan suhbatlasha olishmaydi?" Buning javobini esa shoir so'nggi misrada ochiqleydi:

Ikkimizda hamma narsa bor,
Faqatgina umid yo'q, xolos.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg she'rlarini badiiy tomonlama yuksak she'rlar deyish mumkin. Uning she'rlaridagi ohang, badiiy uslub va nozik kechinmalar chinakam bebaho va takrorlanmasdir. Yuqoridagi she'rida ham biz so'z sehri orqali atrofni tasavvur qila oldik, she'rdagi g'amgin kayfiyatni his qila oldik. Shu o'rinda aytish mumkinki, shoirning barcha she'rlari badiiy-ifodaviy jihatdan yetuk va o'lmas asarlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://fayllar.org/aleksandr-arkadivich-faynberg-hayoti-ijodining-bugungiku-ndagi-v2.html>
2. <https://arboblar.uz>
3. <https://in-academy.uz>
4. <https://esiconf.org>